

NAMANGANNING QIZLARI

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
SALLIY KUTUB PALATASI

Nozima Muhammadjonova Namangan shahridagi 2-maktabning 8-sinfida o'qiydi. U shahrimizdagи «Kamolot» YOIHning sardorlar kengashida «Ma'naviyat va ma'rifat» yo'nalishi sardori. Turli xil tadbirlarda Nozmaning iste'dodiga barchamiz tan beramiz. U ona tili, adabiyot darslariga juda qiziqadi. Tumanimizdagи ana shunday iqtidorli, tashkilotchi qizlarimizdan faxrlanaman.

Abduaziz QIRG'IZBOYEV,
Namangan shahar «Kamolot» YOIH matbuot yo'nalishi sardori



2009-yil
2-fevral
N:5
(66702)

Tong


Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

ISSN - 2010-6092



DUSHANBADA

MARG'ILONDA...

«Guravval» mahalla fuqarolar yig'inida yoshlar uchun yangi, zamонавиyo o'quv markazi ishga tushdi. Pazanda, hamshira, tikuvchi, sartarosh bo'laman, degan o'smir yigit-qizlarga yana bitta quaylik bu. Boz ustiga, bu yerda malakali mutaxassislar ustozlik qilishadi.

Humo qushin quchdi Humoyun,
Dunyo bo'ylab uchdi Humoyun.
Hilpiratib Vatan bayrog'in,
Maydonlarga tushdi Humoyun!



Asian Koi
Diploma

TOSHKENTDA...

Matbuot xabarlariga ko'ra, Toshkentdagи Xalqaro Vestminster universiteti qoshida akademik litsey ochilishi ko'zda tutilayapti. Unga yurtimiz maktablaridan 150 nafar bitiruvchi tanlov asosida qabul qilinmoqchi, Bo'lajak talaba, mana senga yana bitta imkoniyat!

ROSA SEVINDIK

Bilasizmi, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» bizning qishlog'imizdagi maktablarga hozirdanoq baraka keltirdi. Hukumatimiz tomonidan biz o'quvchilarga sport jihozlari, kimyo va fizika xonalariga laboratoriya asbob-uskunlari, parta-yu yangi stol-stullar keltirildi. Sport zalimiz ham ta'mirdan chiqdi. Va u yerda maktabimizning faxriy o'qituvchilaridan bo'lgan marhum Jabbor Namozov domlaning xotiralariga bag'ishlab xotira turniri o'tkazdi.

Xullas, bu yil qishlog'imizda quvonchli voqealar ko'p bo'ladi, degan umiddamiz.

Gulasal XUSHVAQTOVA,
Qashqadaryo viloyati,
G'uzor tumanidagi
18-maktab o'quvchisi

Suratda: karate bo'yicha Osiyo championi
Humoyun SHUKUROV

DUSHANBAGACHA



2009 Tong yulduzi
2-fevral

Toshkentning 2200 yilligiga

Voqealar, xabarlar, ixtiolar

«CHORSU» NIMA DEGANI?

Qadimshunos olim Suyun Qorayev ma'lumotiga ko'ra, «Chorsu» qadimiy so'z bo'lib, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da Chovursuq (to'rt tomonlama) shaklida uchraydi va bozor ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu so'z «Choxarsu» va nihoyat, «Chorsu» shakliga aylangan.




UNUTIB QO'YMAYLIK!

Ba'zi tengdoshlarimizning onalariga qilayotgan muomalalari sizni hech taajjubga solganmi? Masalan, oddiygina non olib kelishga erinib: «Ey, o'zingiz olib keling shu nonni, kechgacha uyda o'tirasiz-ku! Men o'qib keldim, charchadim», deydiganlar bor. Lekin bu noto'g'ri ekanligini, onalarimiz kechgacha bizni deb tinmay mehnat qilishlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Menimcha, muktabda yaxshi o'qishdan tashqari, uyda onamizga ko'maklashsakkina yaxshi bola bo'lismiz mumkin. Chunki har bir xonadonda farzandlarga xos yumushlar bor. Ularni biz albatta bajarishimiz kerak. Axir onalarga hurmat shundan boshlanadi. Onalarimizni qanchalik hurmat qilishimiz kerakligini esa yaxshi bilamiz. Faqat buni ba'zida unutib qo'yaylik!

Umida VAHODOVA,
Hamza tumanidagi

216-muktabning 9-«B» sinf o'quvchisi



Dunyodagi eng baland bino Dubay shahrida joylashgan. Bu yerdagi «Dubay Burji» minorasining balandligi 818 metr bo'lib, 155 qavatdan iborat. Uning rasmiy ochilishi shu yilning 9-sentabrida bo'lib o'tadi.

* * *




Xitoya 12

yildan buyon tinmay kulayotgan Syuy Pinxudey ismli qizni nevrologlar tekshirib, sababini aniqlay olishmayapti.

Qizcha 8 oylikda shamollab, vasvasaga tushgan paytdan boshlab shu holat boshlangan. Biroz tili chiqib gapira boshlagan qizcha 2 yoshga yetganda tildan ham qoldi. Lekin, endilikda uni hech kim kuldirishdan to'xtata olmayapti.

* * *

Sigir yili Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi U. Musayev nomli qishloqda istiqomat qiluvchi Oyxo'ja Isaxo'jayevlar oilasiga quvonchli keldi. Ularning sigiri bir yo'la uch buzoq tug'ib, oilaga quvonch va baraka keltirdi.




qilmay, hujjatlarini topshirdi.

Olti yoshli Barnoxon Mamajonova Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi «Yulduz» raqs dastasiga ikki yildan buyon qatnaydi. Ustozi Malika Po'latovadan raqslaring nozik sirlarini o'rganib kelyapti.

Bugungi kunga qadar Barnoxon Navro'z, Mustaqillik bayramlarida ishtirok etib kelmoqda. O'zining go'zal, quvnoq raqlari bilan barchaga mehr ulashdi. «Xorazmcha», «Andijoncha», «Arabcha», «Buxorocha» raqs deysizmi, hammasini uddalaydi.

Festivalda esa «Hindcha» raqsi bilan hammani lol qoldirdi.

Raqlarining dunyo kezsini, «Yulduz»ning Baro qizi!



«Yangi avlod - 2008»
bolalar ijodiyoti
festivali g'olib.

FERUZA

Ислом Каримов

ЮКСАК
МАЊАВИЯТ –
ЕНГИЛМАС КУЧ



MUTOLAA QILMOQDAMAN

Biz o'quvchilar birinchi o'rinda ma'naviyatlbo'lmosimiz kerakligini bilasiz-a? Kitoblar esa eng asosiy ma'naviyat targ'ibotchilaridir. Ayniqsa, yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas

kuch» kitoblari bugun biz uchun muhim darslik bo'lmoqda. Hatto bu kitob bo'yicha alohida dars o'tilmoqda. Men esa asarni yaxshilab o'rganish uchun bo'sh vaqtimida ham mutolaa qilmoqdaman. Keling, uni har birimiz o'qib chiqib, undan olgan bilimlarimiz bo'yicha musobaqaqlashamiz. Zero, bu avvalo, biz yoshlarga atalgan kitobdir.

Diyor Yo'lchiyeva,

Namangan viloyati, Chust tumanidagi 23-muktabning 9-sinf o'quvchisi

SUN'ITY

U
G'
O
R
I
S
H



Qurilmaning suv idishi quvur orqali havzalardan to'ldiriladi va yig'ma quvurlar yordamida yomg'ir usulida sug'oriladi.

«O'zbekiston» ko'chma sug'orish qurilmasining suv sig'imi 12.356 litrn tashkil etadi. Sug'orish kengligi esa 14 metrga tengdir.

Qurilma soatiga suv havzasasi va sug'oriladigan yer orasidagi masofa hisobga olinmasa, 5 km. tezlikda 3 hektar maydon sug'oriladi.

«O'zbekiston» ko'chma sug'orish qurilmasidan mamlakatimiz xalq xo'jaligini rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin.

Farg'ona tumani «O'quvchi yoshlar texnik ijodiyot markazi»ning «Boshlang'ich texnik modellashtirish» to'garagi o'quvchisi Abdulhofiz Sodiqov ajoyib ixtiro yaratdi.


Uning «O'zbekiston» nomli ko'chma sug'orish qurilmasi asosan qishloq va kommunal xo'jaliklari hamda sport maydonchalarini sug'orishiga mo'ljallangan.

Bu qurilma yordami bilan qishloqlardagi suv chiqmaydigan yerlarni, shahardagi xiyobonlarni va sport maydonlarini sug'orishda samarali foyda beradi.

Ixtironi turli xildagi traktorlarga o'rnatib ishlatsish mumkin.

Sher ALI

ARDAXIVA



Buvim xalqimiz tarixiga oid afsona va rivoyatlarni ko'p bilardilar. Ularning aytili bergen afsonalaridan biri Ardaxiva afsonasi esimda qolgan. Bu afsona zamirida zardusht ta'limoti, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash yotadi. Dunyo bu ikki qarama-qarshi kuchlar kurash maydoniga aylangan. Ezgulik xudosi Ormuzd yer yuzini o'z qo'l ostidagi farishtalar yordamida boshqarib turgan. Qadim Xorazm sarhadlarini samodan kuzatib turish farishta Ardaxivaga topshirilgan. Lekin farishta Ardaxiva Xorazm shahzodasini sevib qolibdi va Ormuzddan odamlarga o'xshab hayot kechirishga ruxsat berishini so'rabdi. Ormuzd ko'p qarshilik qilib, oxiri rozi bo'libdi. Ardaxiva shahzodaga



Sizning xayolingizdan ham shu o'ylar o'tganmi? Keling, unda yaxshi bola bo'lishga harakatni hozirdanoq boshlaymiz. Avvalo, ertalab onangizni ko'p qiyamay barvaqt uyg'onishingiz kerak. Endi katta bo'lib qoldingiz-ku! Portfelingiz, maktab formangizni kechqurun tayyorlab qo'ygan bo'lsangiz, darrov kiyinib yo'lga otlaning. Axir yaxshi o'quvchi darsga kech qolmasligi zarur.

Yana onangiz: «Ustingga qalinoq kiyib ol», desa quloqsiz bo'lmang. Xo'sh... maktabda ustozingizning aytganlarini bajarib, o'rtoqlarin-

gizni ham hurmat qilishingiz lozim. Men bir tengdoshingizni bilaman: o'rtoqlariga juda yomon muomalada bo'ladi. Doim sinfdoshlariga: «Jinni, lo'lini bolasisan, semiz», degan so'zlarni aytib, yomon bola bo'ladi. Voy, ba'zan men ham ukamni «jinnimisan», deb urishaman-u, deysizmi? Demak, bu odatni tashlashga harakat qiling. «Sinfdan tashqari o'qish» kitobingizda «Yaxshi bola» she'rini o'qigansiz-a? Bu she'rni yana bir martta diqqat bilan o'qing. Unda qanday qilib yaxshi bola bo'lish mumkinligi haqida yozilgan. Masalan, quyidagi satrlarga e'tibor bering:

*Maktabga hech qolmaydi kech,
Yaxshi bola, yaxshi bola.*

Oyisiga qarashadi,

Yaxshi bola, yaxshi bola...

O'z yurtiga yarashadi,

Yaxshi bola, yaxshi bola.

Ha, aytgancha, maktabdan qaytgach, onangizga uy ishlarda

YAXSHI BOLA

«Nima uchun kattalar hadeb yaxshi bola bo'lgan, deyaverishadi? Shu gapni eshitavergandan ko'ra, yaxshi bo'lib qo'ya qolay. Axir bu juda qiyin ish emasdir. Xo'sh, ishni nimadan boshlasam ekan?»

BOLISH QIYINMI?




yordamlashish kerakligini bilasiz-a? So'ng, bir-oz dam olib, uy vazifalarini diqqat bilan bajaring. Axir yaxshi bola ko'p kitob o'qimasa bo'lsin! Kitob sizning do'stingiz bo'lsin! Maktab kutubxonasi a'zo bo'lmagan o'quvchi esa bizning do'stimiz emas. Yana sira o'jarlik qilmasligingizni istardim. Chunki erkalik qilib, ota-onasini qiyaydigan bolalarni yomon bola, deyishadi. Yo'llarda kattalarni ko'rganiningizda esa salom berishni unutib qo'yamang. Keling, so'zimizning davomini tengdoshlaringizdan biri Yunusobod tumanidagi 51-maktabning 2-sinf o'quvchisi Azamatbek Bahodirovdan eshitamiz:

—Yaxshi bola bo'lish, menimcha, unchalik qiyin emas. Oyijonimning aytishlaricha, buning uchun ko'p kompyuter o'yinlarini o'ynamay, ko'proq dars qilish kerak. O'quvchining kun tartibiga rioya qilish esa eng oson yo'l. Xullas, kattalarning hamma aytganlarini bajarsak, yaxshi bo'laveramiz.

Siz-chi? Yaxshi bola qanday bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz? Bizga yozib yuboring. Shunday qilib, quloqsiz tengdoshlaringizni tarbiyalab, safimizga qo'shib olamiz. Axir kim ham yaxshi bo'lishni istamaydi, deysiz?!

Sayyora JO'RAYEVA

Mehrinoso bugun har doimgidan barvaqtroq maktabga keldi. U o'qiyotgan ham o'z vaqtida yetib kelishdi. Maktab Hamza tumanidagi 227-umumta'lim maktabida ochib berdilar. O'quvchilar qadim Shoshning tez-tez tarixiy joylari, ulug' bobokalonlarimiz haqida tadbirlar ko'p ma'lumotlarni bilishar ekan. Ular o'tkazilishi «Mening bobokalonlarim kim bo'lgan?»,




Mana, tadbirga taklif qilingan mehmonlar mavzularida fikrlarini erkin bayon qildilar. Ayniqsa, o'quvchilarning ajodolarimizdan bizgacha meros bo'lib kelayotgan noyob kitoblar borasida ko'plab ma'lumotlarni bilishlari bizni quvontirdi. Hattoki «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zolari bo'lmish 5-«V» sinf o'quvchilari Muslima Mirzaboyeva, Sarvar Alovuddinov, Iroda Soqijonovalar o'zlarini yozgan «O'zbekiston», «Ardog'imdasan, Vatan», «Bir el bo'lkii» kabi she'rлarini ifodalni o'qib berdilar. Tadbirga 8-«B» sinf o'quvchisi Dilshod Umarov ijro etgan «O'zbekiston tanho, Toshkent bittadir» nomli qo'shig'i o'zgacha fayz baxsh etdi. Tarixga qiziquvchi o'quvchilar yozuvchi To'lqin Hayit hammuallifligida yozilgan «Shohi Zinda» kitobini diqqat bilan o'qib chiqqanlari ularning bergan savollaridan yaqqol namoyon bo'ldi. Muallif o'quvchilar savollariga javob berish bilan birga, bilimdon o'quvchilarga kitoblar sovg'a qildi. Maktab kutubxonasi esa yozuvchining «Vafo malikasi» kitobi topshirilishidan hammadan ko'proq kutubxonachi opa quvondi.

Tadbir so'ngida maktabning rus tili muallimasi Dilfuza To'raxo'jayeva «Yonib yasha, yondirib yasha» she'ri bilan kechaga yakun yasadi. Mehrinoso esa qo'lidagi sara gullarni mehmonlarga tuhfa etdi.

YONIB YASHA, YONDIRIB YASHA

«O'tda yonmagan, suvda cho'kmagan kitoblar», «Tarixni anglamoq, o'zlikni anglamoq»



AFSONA S.I.

tegib, baxtli hayot kechira boshlabdi. Buni ko'ra olmagan yovuz Axriman sevishganlar orasiga nifoq solish uchun iblisni kampir qiyofasida malika huzuriga yuboradi. Kampir Ardashiva ishonchiga kirib olgach, unga sharob ichishni o'rgatadi. Har xil gaplar bilan shahzoda ikkalasining o'rtafiga nifoq solishga urinadi.

Bir kuni shahzoda ovdan charchab kelib orom olayotganda, malika mastlik va kampirning gaplari ta'sirida shahzodani chopib tashlaydi. Malika kayfi tarqab, qilib qo'ygan ishini anglab yetgach, Ormuzdga faryod qiladi. Undan bu qilgan ishiga jazo so'rabdi. Ardashiva oldida quduq paydo bo'libdi. U Ormuzd sharafiga so'nggi bor ibodat qilib, o'zini quduqqa otibdi. Olov birozdan so'ng so'nibdi va quduq tubidan nihoyatda totli va shifobaxsh suv chiqa boshlabdi.

Keyinchalik bu quduq atrofida karvonsaroylar qurilib, bog'lar yaratilibdi. Odamlar uni «Ardaxiva» qudug'i deb atay boshlashibdi. Quduq atrofida buniyoq bo'lgan shahar esa avval «Ardaxiva», keyinchalik «arda» so'zi olib tashlanib, Xiva deb yuritila boshlabdi.

Har safar Xivaga yo'llim tushganda, bu quduqni ziyyarat qilishga boraman. Quduqqa tikilaman, go'yoki uning tub-tubidan Ardashivaning elas-elas ingragan tovushi chiqayotgandek bo'ladi. Bu afsona 80-yillarda Xorazm ekspeditsiyasining a'zosi taniqli etnograf olim Gleb Senesoryov ham zardusht ta'limoti va uning muqaddas kitobi «Avesto»ga suyangan holda, Xiva so'zining etimologiyasini aynan shu afsona asosida ilmiy jihatdan tushuntirib bergen ekan. Demak, bu shunchaki afsona to'qima emas, tarixning bir bo'lagi, desak xato bo'lmaydi.

Nasiba VOISOVA,
O'zMUning 2-bosqich talabasi

QIZIQARLI MASALALAR



1. 1; 2; 3; 4; 5 raqamlari orasiga arifmetika amallarini shunday qo'yingki, natijada 100 hosil bo'lsin.
2. 1 dan 9 acha bo'lgan raqamlar yordamida 100 sonini yozing.
3. 4 ta 5 raqami ya arifmetik amallar yordamida 100 sonini yozing.
4. 6 ta 9 raqami yordamida 00 sonini yozing.
5. Yig'indisi ko'paytmasiga teng bo'lgan sonlarni siqisizmi?
6. 3 ta ot do shilgan arava bir soatda 30 km. yo'bosdi. Har bir otning yurish tezligini toping.
7. Qanday soat sutkada 2 marta aniq vaqtini ko'rsatadi?
8. 30 sonin 3 ta bir xil raqam dan iborat bo'lgan xil iloda ko'rimshidi yozing.
9. Shunday 4 ta har xil natural son topingki, ulardan ixtiyoriy 3 tasini ko'paytirib birni qo'shganda, to'rtinchisiga bo'linsin.
10. Shunday 4 ta har xil butun son topingki, ulardan ixtiyoriy 3 tasining yig'indisi to'rtinchisiga bo'linsin.

Nurmahammad TURKMANOV

DUGONALAR

Dugonalar, kelinglar boqqa,
Birga o'sib, birga unaylik.
Barchamiz ham juftlikmiz asli,
Gullar kabi o'sib boraylik.

Dugonalar, kelinglar boqqa,
Bulbuljonlar kuylagan chog'da.
Yayrashaylik hammamiz birga,
Kapalaklar qo'nganda gulga.

Muxlisa XAYRULLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, G'uzor
tumanidagi

18-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi

**VATANIM POSBONLARI**

Vatan tinchligi uchun,
Kecha-kunduz xizmatda.
Sizga Vatan ishongan,
Vatanim posbonlari.

Kiyimlari yarashgan,
Er yigitlar, hur qizlar.
Baxtimizga bor bo'ling,
Vatanim posbonlari.

Bayramlar bo'lsa agar,
Xizmatingiz kuchayar.
Elning tinchligin o'ylar,
Vatanim posbonlari.

QISHCHALAR**KUMUSH QISH**

*Qilichin yalang'ochlab,
Bizga maqtanadi qish.
Qorlarini u chorlab,
Qoldirmaydi bizga ish.*

Gupillab qor yog'ar,
Qishdan berar u darak.
Qorbobo, Qorqiz kelar,
Bizga ko'p sovg'a kerak.

YURTIM

Ko'ksingga bosh qo'ysam, alla aytasan,
Har kunlaring bayram, yalla aytasan.
Shamollaring boshim silaydi hatto,
Qadamlaring dadil, ishon bexto.

*Sen ulkan minora ko'kka yetgudek,
Mening iftixordan hushim ketgudek.
Niholsan, bo'ylaring ko'kni quchgudek,
Muqaddas, mo'tabar onamsan, yurtim!*

«TONG YULDUZI»

Ochilmagan sirlarni
Ochadi «Tong yulduzi».
O'qib zukko bo'lamic,
Kechasi va kunduzi.

Dillarni yaratguvchi
Bilimga boy, aql ko'zi.
Seni sevib o'qiyimiz,
Do'stimiz «Tong yulduzi».

Qo'sh sahilarning
Har sohadan so'zlaydi.
Ichidagi maqolang
Ezgulikka chorlaydi.

Nargiza
TOJIMURODOVA,
Xorazm viloyati, Xo'jayli
pedagogika
kolleji talabasi

DO'STLIK

Bu hayot do'stlikdan iborat ekan,
Abadiy qolarkan, yashayverarkan.

Har inson do'sti-la birga tirikdir,
Bu hayot o'zi-chi do'st-la baxtlidir.

Har inson ne qilsa, do'sti deb qilar,
Yaxshi niyatlarini do'stiga tilar.

Do'stlikka xiyonat qilmaydi inson,
Chunki do'stlik unga hamroh har qachon.

Manzura SAYFUDDINOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi
1-maktabning 5-sinf o'quvchisi



Onajonim sochlarda oq qirovmisiz?
Otamga kuch beruvchi baxt yoki murod?
Xato qilsam tergovchi bir so'rovmisiz?
Qalbim to'rida in qurgan qushchalar.

Yurakdan otilgan o't, titroqmisiz?
Barcha yaqinlardan yaqinroqmisiz?
Barcha yaxshilardan yaxshiroqmisiz?
Qalbim to'rida in qurgan qushchalar.

Muattar BARATOVA,
Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi
kasb-hunar kolleji talabasi

Dilnavoz
ADASHBOYEVA,
Toshkent shahridagi
230-maktabning
6-«V» sinf o'quvchisi

Nodira SHIRINOVA, Jizzax viloyatidagi
14-maktab o'quvchisi

**DO'PPINGIZNI
MENGA SOTING**

*Suratda: Samarqand Davlat universitetining
o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari.*

«Shabnam» filmini ko'rgan bo'lsangiz, bosh qahramon zamonaviy kiyinsa-da, boshidan do'ppi tushmasligi kishini hayratlantiradi. Beixtiyor ko'chada do'ppi kiyib yurgan qizlar bo'lmasa kerak, degan o'y xayolingizdan o'tadi. Lekin haqiqatan ham hozirda do'ppi kiygan qizlar topilar ekan.

Bundan bir necha oy avval Samarqand Davlat universitetida o'zbek filologiyasi fakultetining 3-4-kurs talabalari bilan uchrashgandik. Hozirjavob talabalarining samimiyatga to'la savol-javoblari bilan birga, yana bir hol bizni judayam quvontirdi. Faollar zalida yig'ilgan aksariyat qizlarning boshlarida zar do'ppilarini bor edi. E'tibor berib qarasak, bu zarrin do'ppilar qizlarni yana-da latofatli qilib ko'rsatayotgandek edi. Bir so'z bilan aytganda, samarqandlik qizlarning yuzko'zlaridan o'zbekona ibo ufurib turardi. Shu fakultetning 4-kurs talabasi Zulxumor Ashurova universitet qizlarining ko'pchiligi milliy liboslarimizni yaxshi ko'rib kiyishlarini faxrlanib so'zlab berdi. Qizlarning gaplariga qaraganda, Samarqandning qadimiy tarixiy obidalarini ziyorat qilishga chet eldan ko'plab mehmonlar tashrif buyurishar ekan. Bir kuni «Shohi Zinda» ziyoratgohida qizlar Fransiyadan kelgan mehmonlar bilan uchrashib qolibdilar. Mehmonlardan biri qizlarga qarab o'z tilida: «Do'ppingizni menga soting», deb iltimos qilibdi. Samarqandlik go'zallar darhol do'ppilarini nozikta'b mehmonlarga sovg'a qilishibdi. Fransiyalik mehmonlar noyob sovg'ani olib xursand bo'lgan bo'lsalar, o'zbekistonlik suluvlar esa zar do'ppilarini chet ellik mehmonlar boshida ko'rib, faxrlangan ekanlar.

Gulyuz BAHODIR qizi

Kundan-kun ochar chiroy,
Men tug'ilib o'sgan joy.
Vatan ichra bir Vatan,
Qishlog'im - G'urumsarov.

Zavqli hayot farovon,
Ulg'ayaman men shodon.
Tunda ham kunduzgiday,
Ko'chalari charog'on.



Onajonim parvona,
Bo'lay farzand mardona.
General bo'Imoqchiman,
Yurtga aytay shukrona. *Namangan viloyati, Pop tumanidagi*
16-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi

MEN G'UNCHAMAN

Men kurtakman,
Daraxt bo'lgim keladi.
Yorug' nurman,
Quyosh bo'lgim keladi.
Men kechaman,
Kunduz bo'lgim keladi.


Ilimga tashnaman,
Olim bo'lgim keladi.
Orzuim ko'p qalbimda:
Posbon bo'lgim keladi.
Quyosh bo'lib, oy bo'lib,
Osmon bo'lgim keladi.



*Muxlisa NORMO'MINOVA,
Sobir Rahimov tumanidagi
16-maktabning 6-sinf o'quvchisi*

Diqqat! Yangi tanlov!

KIM HAQIQIY MUXLIS?




Qadrli bolajonlar! Tanlovlarni juda yaxshi ko'rasiz-a? Shuning uchun «Tong yulduzi» gazetasining bu yil nishonlanajak 80 yilligi munosabati bilan «Gazetamni yaxshi ko'raman» nomli yangi tanlovini e'lon qilamiz. Unda siz gazetamizni necha yoshingizdan beri o'qishingiz va uning faoliyati haqida nimalarni bilishingizni yozib yuborishingiz lozim. Qani, ko'ramiz, kim ko'proq ma'lumotlarga ega-yu kim haqiqiy muxlisimiz ekan?! Tanlovimizning shartlariga ko'ra obuna varaqangizni (kvitansiya) ham ilova qilsangiz, yana yaxshi. Xullas, «Tong yulduzi»ni yaxshi ko'ruchilar bellashuvni boshlang! Balki siz gazetamiz haqida hech kim bilmagan ajoyib ma'lumotlarni bilsiz, ruknlarimiz-u sahifalarimizni sanab bera olarsiz? Marhamat! G'oliblar esa shu yilning avgust oyida o'tkaziladigan gazetaning katta tantanasida ishtirok etib, esdalik sovg'alariga ega bo'ladilar.

QIZLARXON

BIZNI
QUVONTIRDI


Bilasizmi, tengdoshlar, men sevimli sahifamizga jumboq yo'llagan edim. U gazetada bosilib chiqqach, ustozim bilan rosa quvondik. Hatto sinf rahbarimni matabimiz ma'muriyati a'lochi, faol o'quvchilarni tarbiyalayotganlari uchun taqdirlaydigan bo'ldi. Ko'rdingizmi, biz gazeta-jurnallar bilan do'stlashish orqali yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin. Men matematika faniga juda qiziqqanam uchun «Tong yulduzi»ning 2008-yil 50-sonidagi «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir» ruknida berilgan jumboqni ham yechdim. Ya'ni, tengdoshlarning birida uchta, ikkinchisida beshtadan quyon bor.



Jayrona SULTONOVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 33-maktab o'quvchisi


TAHRIRIYATDAN: Tengdoshingiz Jayrona bizga jumboqning javobini aniq, to'g'ri yozib yuboribdi. Bizning eng quvnoq sahifamizning eng faol o'quvchisiga aylanib borayotgan bilimdon, tirishqoq bu o'quvchimizni yuqoridagi barcha yutuqlari bilan tabriklaymiz!

TOPISHMOQ



Asta ochsak ko'zini,
Yog'och ekan badani,
Yurgan yo'lin kuzatsak,
Qog'oz ekan Vatani.
(urteeb)

(anzoy)



Tengdoshingiz
Xorazm viloyati,
Xazorasp
tumanidagi
10-maktabning
6-«E» sinf
o'quvchisi
Muzaffar
OTABOYEV
chizgan rasmga
qarab ertak
tuzing.


«O'ZBEKİSTON – MENİNG
VATANIM!» TANLOVI
SOVRİNDORI

Sayyora JO'RAYEVA: – Aziz bolajonlar! «Intilganga tole yor» maqolining naqadar rost aytilganiga men yana bir karra guvoh bo'ldim. Sizning sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ning eng yosh muxbiri sifatida faoliyat yuritar ekanman, davlatimizda yoshlarga katta e'tibor berilayotganini yaxshi bilaman. Bugun esa o'zim shu e'tibordan bahramand bo'lib turibman. Umuman, men o'quvchilik yillarimdan buyon Vatanimning g'amxo'rliqi, mehr-muhabbatini his etib yashayotgan baxtli yoshlardan biriman! Siz ham yaxshi o'qib, ko'p muvaffaqiyatlarga erishishingizni tilab qolaman.

SAHIFANI
TANAFFUSDA O'QIYMIZ

Tengdoshlar! Sevimli gazetamizning 2008-yil 52-sonidagi «Quvnoq tanaffus» sahifasi esingizdaridir?! Unda «Go'zal necha yoshda?» sarlavhalni masala berilgan edi. Biz javobni topdik: Go'zal ikki yoshda, opasi to'rt va akasi sakkiz yoshda. Siz-chi, quvnoq sahifamizdagagi jumbog'-u masalalarni yechib boryapsizmi? Axir ular bizni tanaffusda ham ziyrak va topqir bo'lishga chorlaydi. Masalan, bizning sinf o'quvchilari endi tanaffusda nima qilasiz, degan savolga faqat «Quvnoq tanaffus»ni o'qiyimiz, deb javob berishadi.

Nozima MUHAMMEDOVA,
Zarina SODIQOVA,
Buxoro viloyatidagi 18-maktabning
5-«V» sinf o'quvchilari



2009 Tong yulduzi
2-fevral

Uni ta'riflashga so'z topmas zargar

«ALIFBE»DA NECHTA HARF BOR?

(Boshi o'tgan sonlarda)

Kavsar TURDIYEVA

Ff

Sinchkov ko'zla qaralsa,
F soyabon yo hassa.

Foto, fotoapparat,
Bitta oddiy harakat.
Chaqqonlik va ustalik
Va tayyordir esdalik.




Osmom tomon uchishgan,
Samolarni quchishgan.
Yerni aylanishgan gir,
Ular nomi...



Kelar navbatma-navbat
Hammasi go'zal behad.
Yilda to'rt marta asli
Budir yillarning...

Yilning yoz-u qishlari,
Tozalashdir ishlari.
Xona yarq etgan quyosh,
Bunga sababchi...

O'g'il yoki qizlar u,
Kim uchundir bizlar u.
Ota-onaga rohat,
Ko'rsatar dono...




Unda qo'y-u qo'zilar,
Mollar qator tizilar.
Yo tovuq, jo'ja terma,
Barining nomi...

O'ylab topgan o'ying u,
Yangi she'r yo kuying u,
Yoki yangilik, g'oya,
Qilmoqchisan hikoya.
Darrov qil uni zikr,
Kelganda yangi...

Gg

G o'xshaydi do'konga,
Kichkinasi ilonga.



Aka-ukalar qator,
Bitta qutida yotar.
Boshchalar bo'yalgan,
Bir-biriga suyalgan...

Garim, garim doriman,
Shamollasang, doriman.
Ovqatingga solib boq,
Burning jiyirma biroq.




Yozuvchilar asarlar,
Mening bilan yozarlar.
O'qisiz birin-sirin,
Goh achchiqman, goh shirin.
Turlarimni bil, o'rtoq,
Darak, undov va so'roq.



Kuchlidir nafi,
Kattadir xavfi.
Keladi oqib,
Hammaga yoqib.
Unda qaynar choy
Pishadi shirmoy...




Guldirman go'zal tojim
Yechmoqqa yo'q ilojim.
Nomim uzundir biroz
Menman...



Gavhar, Gulnora, Gulnoz
Gilos yeyishdi biroz.
Gilamga tushdi gilos,
Gilos ezildi biroz.
Gulnora, Gulnoz, Gavhar,
Qachon gilamni yuvar?

Ey, garmsel, garmsel,
Qish paytida uyg'a kel,
Uylarimiz sovuq payt
Qo'shig'ingni uyd'a ayt.




(Davomi bor)

Qadim-qadim zamonda Qo'ytosh deb ataluvchi tog' oralig'ida so'lim bir maskan bo'lgan ekan. Undagi hayvonot dunyosi, turli mevali daraxt va dorivor giyohlar tog'ning go'zalligi va fusunkorligini oshirib, ko'rkiga ko'rк qo'shib turarkan. Baland qoya yonida arxar, kiyik va ohular, buloq bo'yalarida esa suvsar va jayralar sakrab, o'ynab yurarkan. Bahor kelishi bilan kaklik, sa'va va bulbullar xonish qilishdan hech charchamas ekanlar. Tog' yon bag'rilar va etaklarida qip-qizil lolalar, ravoch va turli dorivor giyohlar o'sarkan.

Tog' oralig'ida bir jodugar kampir yashar, o'zing sehrargligi bilan atrofdagi barcha tirik mavjudotlarni bir zumda toshga aylantirib qo'yish qudratiga ega ekan. Xohlasa, tevarak-atrofdagi dov-daraxt, ekin-tikin va giyohlarni suvsizlikdan qovjiratib qo'yar yoki suv toshqinlarini vujudga keltirib, turli talofatlar olib kelarkan.

Kunlarning birida u tog' oralig'ida qo'y boqib yurgan ota va uning o'g'llariga duch kelibdi. O'n-

TOG' HAQIDA RIVOVAT



o'nikki yashar bolakaylarning bir-birlari bilan inoq, ahilli va mo'min-qobilligi unga yoqib qolganligidan ularni sehrashga ko'ngli yo'l qo'ymabdi. Goh-goh ular bilan uchrashib turadigan bo'lishibdi.

Sehrgar kampir yolg'iz yashagani uchun bolakaylarga ona-bola tutinish istagini ekanligini aytib, evaziga ko'p boylik va'da qilibdi. Lekin aka-ukalar uning taklifiga rozilik bermabdi. Siz odamlarga bemehrsiz, o'zingizga yovuzlikni kasb qilib olgansiz. Sizdan hamma nafratlanadi, deyishibdi baravariga. Shunda kampirning jahli chiqib bolakaylarni va yaylovdag'i qo'yularni bir zumda sehrlab, keyin o'zi ham toshga aylanib qolibdi. Shu-shu tog' oralig'ida bu so'lim maskan Qo'ytosh nomi bilan ataladigan bo'libdi.

Hozir ham bu maskandagi xarsang toshlarga diqqat bilan razm solsangiz, bir necha uylar atrofida bir otar qo'y yoyilib yurgandek tuyuladi. Qoya toshlari esa xuddi odamlarga o'xshab ketadi. Yana bir qancha shakllar gavdalanadi.

Har safar kichkintoylar Qo'ytosh tog' i oralig'ida yashab, umrguzaronlik qilib kelayotgan momolarning ana shu rivoyatlarini tinglaganlarida, yaylovda qo'y boqib toshga aylanib qolgan aka-ukalarga nisbatan murg'ak ko'ngillarida hayrat va havas tuyg'ulari paydo bo'ladi. Bolakaylarga nisbatan mehr va muhabbat hislari ortadi.

Abdulla SAIDOV,
Xalq ta'limi a'lochisi

Odil ABDURAHMON

ERTAK

Bobom ertak

Aytyapti,

Yoshligiga


Qaytyapti.

Ukam esa.

Ulg'ayib,

Ertak tinglar

Mung'ayib.



NON

Bug'doy nonman,

Oppoq ko'pgan.

Peshonamdan

Dehqon o'pgan.


Men GERBda

Oltin boshoq.

O'pib yegin,

Tushsa ushoq.

FIL



«Zoopark»da deb

Yomonlama,

Hindistondan

Salomnoma.

Qancha yog'och

Tashidim,

Endi boshni

Qashidim.

Dam olishga

Kuzatishgan,

Nafaqaga

Uzatishgan.

CHUMCHUQLAR

To'pon titsak

Qishda biz.

Demak, qattiq

Ishdamiz.

Yeya bermay

Tek indan,

Qurtni terdik,

Ekindan.

Biz ham sizni

O'ylaymiz,

Tekin qo'shiq

Kuylaymiz.



VAFADAN

Suratga olganda qalbinga sig'ar,
Mag'ribdan hattoki mashriqqa qadar.
Ammo Vatan shunday beqiyosdirki,
Uni ta'riflashga so'z topmas zargar.


Vatanim, ta'rifing cheksiz, beqiyos,
Boshingda doimo porlasin quyosh.
Netay suratingni to'liq keltirmay,
Qo'ldan kelganicha she'r yozdim, xolos.

Abu AZIM



2009 Tong yulduzi
2-fevral

«Ishonch qutisi»ning kaliti menda turadi



«Avval» deb nomlangan qishloqda shunday rivoyat yashaydi. Bir kuni qishloqning eng boy odami ko'chib ketayotganida, ot aravalarga ortilgan xazinalar ichidan bir necha qop'i ko'lga tushib, g'oyib bo'libdi. Shu-shu qishloqdagi ko'l tovlanib turar emish...

Biz bu rivoyatni eshitib unchayam ajablanmagandik.

Ammo qishloqdagi 45-maktabda bo'lganimizda, ko'lga to'kilgan «oltin»lar halihamon maktab o'quvchilarining bilimi, intizomi va kelajagida yashayotganiga guvoh bo'ldik.

Andijon viloyati, Oltinko'l tumanining «Avval» qishlog'ida 45-maktab-internati bor. Bu maktab nafaqat viloyatda, balki Respublikada ham taniqli. 2008-yili «Yil maktabi» Respublika bosqichida mazkur maktab-internat o'quvchilari o'z bilim va salohiyati, ustozlarning mehnatsevarligi-yu'jonkuyarligi bois 2-o'rinn sohibi bo'lgan.

Biz maskan rahbari, Xalq ta'limi a'lochisi, el-yurt hurmati ordeni sohibi Aljon aka Mamatoxonovni suhbatga chorladik.

– Aljon aka, maktab hovlisi bizga fayzli bir xonadonni eslatdi. Yo'lakchalardagi gilamlarni bosib yurishdan iyandik, rosti...

– Bunday iliq gaplarni mahalla oqsogollaridan, maktabga kelgan mehmonlardan, ota-onalardan ko'p eshitamiz. Eshitgan sari biz o'quvchilar, o'quvchilar, farroshlar bilim maskanimizni yana-da ozoda saqlashga harakat qilamiz. Shiorimiz – tozalik, intizom.

1997-yildan buyon shu maktab-internatga direktorman. O'quv dargohimizning o'z an'anasi bor. Bu yerda ta'lim-tarbiya olayotgan 211 nafar o'quvchilar asosan kimyo-biologiya fanlari bo'yicha kuchaytirilgan tartibda bilim oladilar. Ularga bilimdon va tajribali o'quvchilar saboq berishadi.

– O'quvchilarining erishgan yutuqlari haqida aytib o'tsangiz.

– 2008-yilda o'quvchilarimizning 67 nafari turli oliygoҳ talabasi bo'ldilar. Ularning deyarli asosiysi meditsina oliygoҳida o'qiyaptilar.



– Eshitishimizcha, siz matabingizga o'quvchilarini saralab, imtihondan o'tkazib olar ekansiz?

– O'zim kimyo-biologiya fanidan dars beraman. O'z kasbining bilimdonlarini tanlashimning boisi, ulardan tarbiya olgan o'quvchilar ham ilmga chanqoq, zukko va izlanuvchan bo'ladi-da. Ular hatto mehnatkash. O'quvchi-yu o'quvchilarim matabimiz hovlisidagi hamma ishlarni bir oila bo'lib bajarishadi. O'quvchilarim va o'quvchilarim dargohimizda ham bog'bon, ta'mirchi, usta va tadbirdor ham o'zlar.

– Yo'lakdagagi «Ishonch qutisi» o'quvchilaringizga qanday xizmat

KO'LGA TO'KILGAN

OLTINLAR

ko'rsatadi?

– O'quvchilarimiz har bir darsni puxta o'zlashtirishni xohlaydilar. Ulardan kuchli bilim talab qiladilar. «Ishonch qutisi» o'quvchilarning eng yaqin do'sti. Unda o'quvchi o'quvchisi haqida o'z fikrini va takliflarini bildiradi.

Qutining kaliti faqat menda turadi. Uni sardorlar boshchiligidagi haftaning shanba kunlari ochamiz. Qutidagi o'quvchilarning

dadil fikrlaridan quvonasan kishi. O'z o'quvchisini tanqid qilish yaxshimas... Ammo darsiga kech qoladigan, yangi mavzuga tayyorlanmay keladigan ustozining kamchiligi haqidagi yashirin fikrlarni aynan shu sirli qutichadan topasiz. Yana taklif, istaklar, mulohaza va yangiliklarni ham...

– Ustoz, gazetamiz orqali respublikamiz bolalariga tilaklarigiz.

– Istiqlol farzandlari bilimdon, intiluvchan... Bugungi kunda nafaqat Respublikamizda o'z iqtidorini ko'rsatmoqda, balki dunyoga O'zbekiston nomini ko'z-ko'z qilmoqda. Fan borasida deysizmi, sport sohasida deysizmi, barcha-barchasida dunyo bolalari bilan bemalol bellashyapti. Ularga havas qilaman.

Ma'mura MADRAHIMOVA suhbatlashdi



YANA YOSHLARIMIZ

O'tgan hafta Qatarda futbol bo'yicha xalqaro «Do'stilk» kubogi o'z niyoyasiga yetdi. Bu musobaqa har yili tashkillashtirilib, unda Yevropa va Osiyonning kuchli yoshtar terma jamoalari ishtirot etib keladi. Muhimi, bizning yoshtarimiz ham bu turnirda har yili qatnashib, yuqori natijalarga erishib kelmoqda. O'tgan yili uchinchi o'rinn bilan kifoyalangan jamoamiz bu yil finalgacha yetib keldi.

Guruh bahslarida Belorussiya, Polsha va Qatar jamoalarini yengib, yarim finalga yo'l oldi.

Yarimfinal bahsida Osiyonning «gigant» jamoasi Yaponiya bilan kuch sinashgan Ahmad Ubaydullayev shogirdlari mardonavor o'yin ko'rsatib, 3:2 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Final bahsida Suriya bilan o'ynagan vakillarimizga biroz omad yetishmay, kichik hisobda o'yinni boy berib qo'ydi.

Bu musobaqa yoshtarimiz uchun Misrda o'tadigan Jahon championati oldidan o'ziga xos tayyorgarlik vazifasini o'tab berdi.

MDHDA YARIM FINAL

Moskvada esa Boltiqbo'y va MDH championlari kubogi ham niyoyasiga yetdi. Paxtakorchilar guruhda bir g'alaba, ikki durang bilan chorak finalga yo'l oldi.

«Ekranas» bilan kechgan chorak final penaltilar seriyasigacha davom etdi. «Lotereya»lar bahsida omad vakillarimizda bo'ldi. «Sherif» bilan bo'lgan yarimfinal bahsida o'yinining asosiy vaqtida 2:2 hisobi qayd etildi. Penaltilar seriyasida paxtakorchilarga biroz aniqlik yetishmadidi. «Paxtakor» – «Sherif» 2:2 (4:3)

XABARLARI

BESHBULOQDA YANGILIK

Beshbuluoq va Chuchukquduqdan tez orada championlar yurtga taniladi. Tog'oldi hududida joylashgan Beshbuluoqda foydalaniшha topshirilgan sport koshonasi o'quvchilarni mashg'ulotlar bilan band etishga ulgurdi. Ayni paytda milliy kurash va yakkakurash mashg'ulotlarini boshlab yuborgan bolalar championlik sari ilk qadamlarini tashladilar. Bu yerda katta futbol zali, yugurish yo'laklari, trenajor va ikkita sauna bolalar xizmatida ekanligidan qishloq ahli mammun.

SITORANING PARVOZI

Angrenlik Sitora Nishonova ayni vaqtida shahardagi 4-maktabning 9-sinfida o'qiydi. U 7 yoshdan boshlab sharq yakkakurashi bilan shug'ullanadi. Murabbiyi Qahramon Sattorov Sitorani avvaliga viloyat va respublika musobaqalaridagi yutuqlaridan quvondi. Sitoraning 2007-yil poytaxtdagi bolalar va o'smirlar o'rtasidagi kikboksing jahon birinchiligidagi g'olibligi sport olamida o'z o'rni borligini ko'rsatgandi.

2008-yilda esa taekvando (ITF) bo'yicha ilk marotaba o'tkazilgan jahon birinchiligidagi oltin medalni qo'lga kiritdi. Sport olamidagi ilk parvozing qutlug' bo'lsin, Sitora!

Sh. NAMOZOV



2009 Tong yulduzi
2-fevral

Ma'nан yetuk, ruhan sog'lom bo'lganingizdan keyin «Jahon mamlakatlari» bilan tanishgingiz keladi

YAXSHI

o'rgatish oson ish emas. Buning uchun ana shu ulkan mas'uliyatni o'z zimmasiga olayotgan murabbiy juda ko'p narsalarni bilishi, yuksak fazilatlarga ega bo'lishi, shaxsiy e'tiqod va qarashlari, ma'naviy dunyosi bilan o'quvchilarni o'z orqasidan ergashtira olishi kerak.

Sinf rahbarining vazifalari, huquqlari, faoliyati haqida bilishni istasangiz, Asqar Hayitovning «Yangi asr avlod» nashriyotida chop etilgan «Sinf rahbari» nomli kitobini o'qishingiz mumkin.

Shuningdek, o'zbek milliy taomlarining tayyorlanish usullari va tarkibi bilan qiziqsangiz, «Parhez taomlar oshxonasi»da «O'zbek dasturxoni» kitobini oling va u sizga hamisha to'g'ri ovqatlanish haqidagi tavsiyalarni beradi.

Ma'nан yetuk, ruhan sog'lom bo'lganingizdan keyin «Jahon mamlakatlari» bilan tanishgingiz keladi. Dunyo mamlakatlari haqidagi ma'lumotlar barchani qiziqtirishi tabiiy. Ushbu kitobda dunyoning 221. davlati haqida ma'lumot beriladi.

KITOBALAR



BOR

LIN VORD

Bir bor ekan, bir yo'q ekan... Kim ham qiziqarli ertakni eshitishni xohlamaydi, deysiz. Unday bo'lsa, «Oltin sandiq»da «Podsho va tikuvchi» kitobini o'qing.

«Yangi asr avlod» sizni bilimdon va zukko bo'lishingizni istaydi. O'ylaymizki, nashriyot kitoblari sizga manzur bo'ladi.

Ey, dil! Do'st tutmoqning aytil sirini?
Do'st ata qalbingga eng manzurini.

Ey, dil! Kimni aylay o'zinga oshno?
Kamtarin do'st yaxshi erur mutlaqo...

Obiddin MAHMUDOV

Bobom mehmon bo'lib kelgan edilar. Ularga go'zal Toshkentni ko'rsatdim.

H ₁											
A ₂											
N ₃											
D ₄											
A ₅											
L ₆											
A ₇											
K ₈											

Savollar:

1. Qo'l (ingliz tilida).
2. Bol.
3. Xat.
4. Yaylov.
5. Suv yo'li.
6. Tog' guli.
7. Mansab.
8. Oshxona buyumi.

Tuzuvchi: Dilnoza EGAMBERDIYEVA

Erkak ismi	Olma navi	Asaka avto markasi	Tepalik, girlik, yer	Suv yo'nalishi	Jizzax viloyati tumani	Umid, istak	Avto-mobil yoritkichi	Farish-ta	Qamariy yil hisobidagi oy	Sharafli, obro'li	Kelajak
Zamin-ning sayqali, shahar	Harakat-chan, chaqqon	Shamsiya yili oyi	Osiyo-dagi davlat	Yozuv-dagi "qo'l"	Musiqiy ovoz	Erkak ismi	Lavozim, mansab	Choy navi	Olov, alanga	O'rtoq, do'st	Shirinlik

Tuzuvchi: F. ORIPOV



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOC'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Gulyuz ORIFJONOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks: (99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 63474
Buyurtma N: J 6828